

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AGRO TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Bobojonova Madina Jumaniyoz qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi Magistranti

**Abstarct:** Bugungi kunda turizm sanoati dunyodagi eng katta sanoat turlaridan biri hisoblanadi. Statistikadan ma'lumki, hozirda dunyo bo'ylab har yili bir yarim milliarddan ortiq kishi sayohat qilib, ushbu sohaning pul aylanmasini 1 trillion dollardan oshib ketganini guvohi bo'lyapmiz. Turizmdan keladigan daromad dunyodagi ayrim davlatlarning yalpi ichki mahsulotida 50-60 foizni tashkil qiladi. Ushbu maqolada agro turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati va mamlakatimizda agro turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilib, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilmiy tahlillari shu bilan birga ilg'or tajribasi asosida yurtimizda agro turizmni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

**Key points:** agro turizm, agroklastar, xorijiy tajriba, qishloq aholisi, daromad, infratuzilma.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Buxoro viloyatida "Varnet", Toshkent shahrida "Nyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Notel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishini aytib o'tish joiz. Agroturizm tushunchasiga olimlar va shu soha mutaxassislari tomonidan turli xil ta'riflar berilgan. Agroturizm mutaxassislari tomonidan agroturizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Agroturizm bu –qishloq joylarda tashkil etiladigan faoliyat bo'lib, mehmonga keluvchilarga kompleks xizmat ko'rsatish ya'ni yashash, dam olish, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, bo'sh vaqtni va sport tadbirlarini samarali tashkil etish, turizmning faol ko'rinishlari bo'lgan baliq va hayvonlarni ovlash bilan shug'ullanish hamda bilim va yangiliklarga ega bo'lish demakdir. Agroturizm -turizmning tarmoqlaridan biri bo'lib, tabiat, madaniy -tarixiy va boshqa qishloq joylardagi resurslarni va o'ziga xos turistik mahsulotlar majmuasini tuzishdan iboratdir.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay, valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Xitoy, Janubiy Koreya, Qozog'istonlarda ham xuddi shunday yuqori

ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda respublikamizda turizmning boshqa turlari qatori agroturizmni ham rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog'i ham katta salohiyatga ega. Ushbu yo'nalishda agroklastarlarni O'zbekistonda barpo etish orqali agroturizmni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Ikki yil avval korxonada endigina tashkil qilinayotgan edi va bitta issiqxonadan iborat edi. Hozir uning yonida butun bir agrosanoat majmuasi: o'quv markazi, laboratoriya va issiqxonalar konstruksiyalari ishlab chiqaruvchi zavod barpo etilmoqda. Korxonada zamonaviy issiqxonalar uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish niyatida. Biz shuncha yil issiqxonalarda ishladik, lekin mutaxassislar yo'q edi. Hozir bu yo'nalish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda", — dedi Shavkat Mirziyoyev. Buxoro viloyati qumli va sho'rlangan tuproqning ko'pligi, shuningdek, suv resurslarining kamligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun gidroponik usul ko'proq mos keladi. Shularni inobatga olib, Prezidentning 2018-yil 10-iyuldagi qarori bilan "Bukhoro-agro" erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi, deya xabar beradi davlat rahbari matbuot xizmati. Buxoro Varnetiga 120 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoya kiritildi. Bugungi kunga qadar xorijdan 10 million dollarlik kapital mablag' o'zlashtirilib, 13 gektar yerda issiqxonalar barpo etildi, 260 dan ortiq ish o'rni yaratildi. Yana 17 gektarda qurilish ishlari davom etmoqda.

O'tgan yil davomida qariyb 20 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, 1 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Joriy yilda 26 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilgan.

Korxonada 113 gektar maydonni egallab, to'liq quvvatga kirgach, yiliga 33,8 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Bu jami 2 mingga yaqin ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Prezident "Bukhoro Varnet" korxonasi qoshidagi o'quv markazini ko'zdan kechirdi – Shavkat Mirziyoyev o'tgan yil 12-dekabr kuni Xorazm viloyatiga tashrifi chog'ida tadbirkorlar va yoshlar uchun bunday markazlarni ochish zarurligi haqida gapirgan edi. - Nima uchun bu tizim muhim? Birinchidan, yoshlarimizga rivojlangan davlatlardan kelgan mutaxassislar onlayn tarzda saboq beradi. Ikkinchidan, issiqxonalar uchun zarur materiallar mahalliyashtiriladi. Eng muhimi, bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, — dedi Shavkat Mirziyoyev.





### Varnet Buxoro 2022y

“ Buxoro Varnet “ issiqxona klasteri uchun 5 ta tumandan 3000 gektar yer ajratilgan bo’lib, 120 gektardan ziyodroq yerda qurilish ishlari davom etayapti. Issiqxonaga kirar ekansiz, o’zingizni xuddi tropik o’rmonlarda yurganday his qilasis. Maxsus “kokos tuprog’i” to’shalgan egatlarda o’zini qadrdon vataniday his qilib yayrab o’sgan turli tropik mevalar keladigan mehmonlarga ham namoyish ham tortiq etilyapti. Bundan tashqari pomidorning qora navi ham keladigan sayyoh va mehmonlarni o’ziga jalb qilmoqda. Ushbu pomidor navi juda shifobaxsh bo’lib, uning tarkibi inson organizmini turli zarali moddalardan tozalaydigan, miya va yurak faoliyatini yaxshilaydigan aminokislotalarga boy. Botanika bog’i, “Varnet” issiqxona akademiyasi ishlab turibdi va bu o’quv markazida talabalar –bo’lajak agronomlarga amaliyot darslari o’tiladi. Ya’ni talabalar universitetda olgan nazariy bilimlarini bu yerda amalda sinovdan o’tkazishadi. Issiqxona suv havzasida losos baliqalari, daraxlar ustida noyob qushlar bor. MCHJ ijrochi direktori Hamroyev Beshim Niderlandiya andozasi asosida qurilgan issiqxona respublikimizda yagona ekanligini ta’kidladilar. Mamlakat qishloq xo’jaligi rivojiga katta hissa qo’shish, o’z yangiligi bilan nafqat xalqimizni, xorijliklarni ham hayratga solish- faxrlansa, g’ururlansa arziydigan ish. Asosiysi, o’quvchilar bu yerda hayvonot va nabodot olamiga sayr qilib, ularni o’rganib, o’zlaridagi yaratuvchanlik, mehnatsevarlik, qobiliyatlarini shakllantirishyapti.

### AGROKLASTERLAR ORQALI AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

1. qishloq joylarida yangi ishchi o’rinlar yaratiladi.
2. qishloq joylarida sanoatning tarmoqlari, ya’ni qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish rivojlanadi.
3. ijtimoiy, ishlab chiqarish, maishiy infratuzilma yaxshilanadi.
4. qishloq joylariga pul mablag’lari kirib keladi.
5. hunarmandchilik va savdo –sotiq rivojlanadi.

Fermerchilik asosida agroturizmni tashkil etish asosida qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyati yotsa, ish yuzasidan agroturizm ilmiy –texnik hamkorlik, qo’shma korxonalar tashkil etish va boshqa faoliyatlarda shakllanadi. Agroturizmni rivojlantirishni o’zigaxos xususiyatlariga ega. Bular quyidagilar hisoblanadi:

-qishloq joylarida joylashish va ovqatlanish shaharga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi; -qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi; -ekologik toza ovqat turlarining mavjudligi;

-etnografik turizm ob’ekti sifatida, qishloq joylarida milliylikni ko’proq saqlanib qolganligi va boshqalar.

Agroturizmni ma’lum bir mintaqaning o’ziga xos dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini ko’rsatish maqsadida tashkil etish mumkin. Bu tajriba yevropaning bir qancha davlatlarida rivojlangan. Masalan, Fransiya va Portugaliya mamlakatlarida uzumni yetishtirishdan boshlab, undan turli ichimliklar olishgacha bo’lgan bir butun jarayon tur sifatida

taklif etilgan. Xuddi shunday jarayonlarni mamlakatimizda ham rivojlantirish imkoniyatlari keng. Mamlakatimizning xalqaro darajada ixtisoslashgan tarmogʻi hisoblangan paxtachilik tarmogʻida ham bir qancha turlarni ishlab chiqish mumkin. Bu jarayonni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirsa boʻladi : paxta maydoni→ paxta qabul qilish punkti→ paxta tozalash zavodi→ ip-yigiruv korxonasi→ tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonasi. Buturda, birinchi navbatda paxta maydoniga boriladi, unda hosilni yigʻib olish jarayoni koʻrsatilishidan boshlab, tayyor mahsulotga boʻlgan bir butun faoliyatni qamrab olinadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi sxemaga oʻxshab qishloq xoʻjaligini boshqa tarmoqlarida ham turli turlarni ishlab chiqish mumkin. Turistik firmalar bilan fermer xoʻjaliklar oʻrtasida shartnomalar tuzish va hamkorlikda ishlashni yoʻlga qoʻyish; kelgan turistlarni tumanda koʻproq boʻlishini taminlash maqsadida sanoat turizmi va agroturizmni birgalikda tashkil qilish; hududlarda qishloq xoʻjaligida tezkor axborot konsalting xizmatlarini rivojlantirish. Mazkur agroservis xizmatlarini sifatli yoʻlga qoʻyilishi qishloq xoʻjaligida fermer va dehqon xoʻjaliklarining zaruriy axborotlarga ega boʻlishi bilan birga turli koʻrinishdagi oʻz vaqtida va malakali maslahatlar olish imkoniyatlarini yaratish bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda agroklasterni, bogʻdorchilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklarini soni va sifatini oshira olsak rivojlangan davlatlar singari bizning hududlarda ham agroturizm jadal surʼatlar bilan rivojlanadi. Chunki qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga agroturizm imkoniyatlari yaʼni, keng dalalar va maydonlar jumladan, fermer xoʻjaliklarining mavjudligi, sanoat korxonalari va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash zavodlaridan, intensiv bogʻlarni tashkil qilinganligi hamda bogʻdorchilik, ushbu sohaning kelajakda gullab -yashnashiga zamin boʻladi.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

1. Chase, Lisa C.; Stewart, Mary; Schilling, Brian; Smith, Becky; Walk, Michelle (2018-04-02). "Agritourism: Toward a Conceptual Framework for Industry Analysis"(en). *Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development*8(1): 13–19. doi:10.5304/jafscd.2018.081.016. ISSN2152-0801
2. Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва –2011
3. Muratov S., Pardaev K., Hasanov S. Assessment of the impact Covid-19 pandemic on family income from non-farm activities // *Irrigation and Melioration*. –2020. –T. 2020. –No.
4. C. 95-98.4. Elbek, T., Risolat, I., & Aggelopoulos, S. (2016). Agro and eco-tourism development in rural areas of Uzbekistan: Analysis using of " Gravity" model approach. *European Scientific Journal*, 12
5. Atakhanov, R. S. (2021). Karakalpakhs of the fergana valley: migration and integration processes. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 586-596.
6. Sotvoldievich, A. R. (2021). Fargʻona vodiysi qoraqalpoqlarida oilaga oid anʼana va marosimlar: Anʼana va zamonaviylik. *Web of Scientist: Xalqaro ilmiy tadqiqot jurnali*, 2(05), 747-755.
7. Tursunov, X. T., & Rahimova, T. U. (2006). *Ekologiya*.
8. Muratov S. A. ECONOMIC ASSESSMENT OF FACTORS AFFECTING THE DECISION OF HOUSEHOLDS TO ENGAGE IN NON-FARM ACTIVITIES // *Irrigation and Melioration*. – 2021. –T. 2021. –No. 2. –C. 38-43.
9. lex.uz